

Qashqadaryo viloyati Avtomobil yo'llari hududiy boshqarmasi



Boshliq v.v.b Raximov Bekmurod Qurbonovich

Qabul kunlari: Shanba, 14⁰⁰ - 16⁰⁰

[Qarshi shahar 180119,](#)
[Honobod ko'chasi, 23-uy](#)

Mo'ljal: "Saroy" choyxonasi, Shahar soliq inspeksiyasi.

Transport:

Avtobus: 6.

Marshrutlar: 6,12,37,5,13,22.

(0 375) 221-56-81

(0 375) 221-52-13

qashqadaryo@uzavtoyul.uz

<https://qashavtoyul.uz>

Qashqadaryo viloyati Avtomobil yo'llari hududiy boshqarmasining funksional vazifalari

– viloyat hududidagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari tarmog'ida uzluksiz qatnovni ta'minlash maqsadida o'zining tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning texnikaviy, ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek pudrat ishlarini bajarishda yuqori ko'rsatkichlarga erishilishiga shart-sharoit yaratish;

– viloyat hududidagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari tarmog'ining O'zbekiston Respublikasi "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi qonunida belgilangan tartibda qurish, rekonstruktsiya qilish, tamirlash, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etish va bevosita mazkur qonunga amal qilinishini nazorat qilish;

– viloyat hududida joylashgan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, joriy ta'mirlash va jihozlashishlari bo'yicha buyurtmachilik vazifasini amalga oshirish;

– viloyat yo'l xo'jaliklari manfaatlaridankelib chiqib, viloyat hududidagi tasarrufida bo'lgan umumiy foydalanishdagi avtomobilyo'llarini loyihalash, qurish, qayta qurish, ta'mirlash va saqlash bo'yicha viloyatdagi yo'l xo'jaliklarini boshqarishda yagona texnik siyosatni olib borish;

– viloyatdagi yo'l xo'jaliklarining moliyaviy, moddiy-texnik resurslardan samarali foydalanishda barcha yo'l korxonalarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

– Bosh boshqarma tarkibiga kiruvchi korxonalarining birgalikdagi harakatlari bilan ishlab chiqarishda xom-ashyo, material va ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish quvvatini oshirish, ilg'or texnika, texnologiya, materiallarni ishlab chiqarishga joriy qilish va ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarni tashkil qilish;

– davlat organlari, boshqa korxonava uyushmalar bilan o'zaro hamkorlikda o'z tarkibiga kiruvchi korxonava va tashkilotlar manfaatlarini ximoya qilish;

– mehnat jamoalarining ijtimoiy rivojlanishi masalalarini hal qilishda tarkibidagi korxonalarga yordam berish;

– Bosh boshqarma tarkibidagi korxonalar tomonidan shartnomalar asosida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarni qurish, ta'mirlash, saqlash va boshqa turdagi pudrat ishlarini bajarish;

– ishlab chiqarishni texnikaviy va ashyoviy ta'minoti, aniq ish bajaruvchini tanlash, ish xaqi to'lashda o'rnatilgan tartib va usullarni qo'llash, ishchi xizmatchilarni ijtimoiy himoyalash va o'z-o'ziniboshqarish masalalarini mustaqil hal qilish, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish talablarini bajarish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

[nizomni yuklab olish \(pdf, 167 kb\)](#)